

O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINING IJROCHILIK MAKTABINI
O'ZLASHTIRISH

Axmedov Elmurod G'anisherovich

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati

instituti professori

Annotatsiya: *ushbu maqolada o'zbek xalq qo'shiqlarining mahalliy ijrochilik maktablari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *“Binnigi” uslubi, “Gulligi” uslubi, vokal, disfoniya*

O'zbek xalq musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, oliy insoniy fazilatlari, istiqloq va mustaqillik uchun kurashi tasvirlanadi. O'zbek xalq musiqasi iborasi keng mazmunli, serkalom tushuncha bo'lib o'z ichiga musiqiy merosning ichki qatlamining xalq ommaviy musiqasi va kasbiy musiqasini oladi. O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlariga alla, lapar, yalla, terma qo'shiqlar, kasbiy musiqasiga esa maqomlar, katta ashula, mumtoz qo'shiqlar kiradi.

O'zbek xalq qo'shiqlarini ijrochilik maktabini o'zlashtirishda eng avvalo, milliy ovoz va shu ovozda milliy bezaklar, nolalarni kuylab ijro etib bera olish mahorati zarur bo'ladi. Buning uchun kuylash malakalari haqidagi nazariy bilimlarni ko'rib chiqamiz.

O'zbek xalq qo'shiqchilik maktabi ko'p ming yillik tarixga ega. Xalqimizning milliy yashash turmush tarzi, shodlik va quvonchlari o'z qo'shiqlarida aksini topgan.

Beshik qo'shiqlari, to'y-marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, lirik va epik qo'shiqlar, marosimlari, o'zbek xalqining o'z boshidan kechirgan butun o'tmishini aks ettiradi. Bu namunalar birgina an'anaviy kuylash uslublarida aksini topgan. Qadimdan saqlanib kelayotgan «Ustoz-shogird an'analari» avloddan-avlodga, tildan tilga, ustozlardan shogirdlarga o'tib qo'shiqlarimiz yashab kelmoqda, o'z navbatida o'zbek xalqining ashulachilik maktabi shakllanib o'z fayzi tarovati bilan shinavandalar e'tiborini qozongan. Ashulachilik maktabi ikki ijro uslubida bo'lib ular «Binnigi» va «Gulligi» uslublaridir.

«Binnigi» uslubi

Bu ijro yo'li tovushni burun va ta'lak orqali shakllantirib dimoqda kuylash yo'lidir. Bu uslub qo'shiqchilikda to'g'ri yo'l hisoblanib tovush xosil qilish apparatini uruntirmay, ijrochining uzoq vaqt tovushni charchatmay kuylay olishga imkon yaratadi. Qo'shiq kuylash jarayonida og'iz katta ochilib har bir so'zlar dona-dona, aniq qilib talaffuz etib borishga erishish lozim.

MASALAN:

Qora sochim o'sib qoshimga tushdi, Na savdolar mening boshimga tushdi, Sening ishqing menga qaydin yopishdi, Tanamdan o't chiqib bag'rim tutashdi, O'zi oshno dili begonalardan yor-yoro

Qo'shiq kuylash jarayonida nafas qorin bo'shlig'iga olinishi

zarur .«Ishkambi» deb nomlanadigan bu uslub to'g'ri hisoblanib, so'z bo'g'inlarini cho'zib kuylashda nafas zahirasi yaratish imkoniyatini beradi.

«Gulligi» uslubi

Bu kuylash uslubi qadimiy hisoblanib, kuylovchi qo'shiqni tomoqdan, tovush paylarini zo'riqtirgan holda kuylashi nazarda tutiladi. Doston aytuvchi ijrochilar ham shu uslubda kuylaydilar. O'tmish xofizlarimiz va «Katta ashula» ijrochilari o'tmishda shu uslubda kuylaganliklarini ko'rishimiz mumkin. Kuylash jarayonida tovush paylari tezda charchab qoladi va paylardagi mayda karillyar qon-tomirchalar uzilib ketishiga olib keladi. Natijada kuylovchida disfoniya ya'ni tovush xastaligi vujudga keladi. Tovushni o'ta zo'riqtirish yurak va miya qon-tomirlari shikastlanishiga va sog'liqqa zarar yetkazishiga olib keladi. Bu holatga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin.

Kuylash vaqtida ovoyni to'g'ri ishlatish qonun-qoidalariga doimo rioya etib borilgan chog'dagina biz ko'zlangan maqsadga erisha olamiz. Buning uchun mash'ulotlar jarayonida eng maqbul uslub ovoyni zo'riqtirmay binnigi uslubida kuylatish yaxshi samara beradi. Ovoz membranadan chiqib yuqori talakka tegib, yuqori jag' orqali burunga beriladi va ovozda quvvat ortib «Rezonans» holatiga o'tiladi. har bir ijrochi kuylash vaqtida tovushni yuqori jag'ga yo'naltirib, dimoq orqali chiqarishni kuzatib borishimiz lozim. Qo'shiq ijrochiligi bo'yicha mashg'ulot va to'garakning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi ijrochini «Binnigi» ijro uslubiga o'tib kuylashlari ta'lim va tarbiya jarayonining sifat va samaradoriligini oshirishimizga imkon beradi

Vokal - qizlar ovozida hirgoiy honish malakalarini shakllantiradi. Ochiq ovozda kuylash uchun an'anaviy kuylash mashqlaridan foydalanishimiz lozim. Bunday mashqlar o'zbek xalq qo'shiqlaridan daromad va miyonhat qismlaridan foydalanishimiz mumkin.

Xalq qo'shiqlarining mahalliy uslublari bo'yicha kuylash chog'ida mahalliy shevalar, kuylash manerasi, ovoyni ishlatish mahorati, qaysi tilga mansubligi va ijrochilik maktablariga e'tibor berish kerak.

Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubi ko'proq adabiy tilga asoslangan uslubda ijro etilib, Farg'ona ashulachilik maktabi namunalari alla, yalla, lapar, o'lan, katta ashula va lirik qo'shiqlardan iborat. Xalq qo'shiqlari asosan «Gulligi» uslubida, ya'ni tomoq va ko'krak qafasidan foydalanilgan holda ijro etiladi.

Masalan:

- Osmondagi oy,
- Magazinchil boy. - Nima qilyapsiz? - Olma teryapman.
- Olmangizdan bermaysizmi? - Bobom uradi.
- Bobongizdan olma qolsin! - Unday demang-e
- Doyrani chaling-e - O'ynangiz qizlar.

Qo'shiqdagi kuylanayotgan bolalarcha xayolot,so'z aytishuvlari, o'yinqaroqlik va ichki kechinmalar ham asarning qaysi vohaga mansub ekanligini namoyon etib turadi. Ijroda vodiya xos nola va bezaklar, avj pardalardagi honishlar, qo'shiqqa o'zgacha husn va tarovat bahsh etib turadi.

Bolalar tomonidan ijro etiladigan o'yin-qo'shiqlardan «Chopishda kim o'zadi?» shunday matnlar keltiriladi.

Qo'shiq so'zlariga e'tibor beradigan bo'lsak, bolalar saviyasiga xos so'z o'yinlari, qofiyaning kelishi va bolalar ijodi namunasini ko'rishimiz mumkin. Ayrim bolalar qo'shiqlarida joy nomlari keltirilganligini ko'rish mumkin.

Namanganning chumchug'i Soyga qarab uchadi.

Men akamni sog'insam, O'ng qovog'im uchadi.

yoki,

CHarxim g'um-g'um etadi, Tovushi Qo'qon ketadi, Qo'qonlikning qizlari, Achchiq olma ekadi.

O'quvchilarda mazkur mahalliy uslubda kuylash malakalarini shakllantirishda vohaga xos nola va bezaklar, matn talaffuzi, pardalarni sof va intonatsiya asosida kuylashga e'tibor bermoq lozim.

Buning uchun o'qituvchi original ijroda qo'shiqni o'quvchilarga ohangrabo tasmasida qo'yib eshittiradi. Ijrodan so'ng o'zi ham ushbu qo'shiqni to'liq kuylab beradi. Agar ushbu xalq qo'shiqlarini mukammal o'rganib sahnaga olib chiqiladigan bo'lsa, ijrochilarning vohaga xos milliy liboslari ham katta ahamiyatga ega. Har bir mahalliy ashulachilik maktablarining lokal uslubi, raqs harakatlari, liboslari bir-biridan tubdan farq qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. „Interfaol ta'lim metodlari” Shayakubov Sh. K. Ayupov. R
2. R.Yo'ldoshev, R. Xusainova, U. Bobojonova. Ta'limning interfaol metodlari (metodik qo'lanma) Urganch-2011
3. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirziyayeva „Ta'lim metodlari” o'quv-uslubiy qo'llanma, „ Navro'z” nashriyoti, Toshkent-2017
4. Sobirova M.R O'zbek tili darslarida interfaol usullardan foydalanish Молодой ученый.-2020 №14 (304)
5. . P.Турсунов. Ашула ва рақс ансамбли билан ишлаш услубиёти. Т., 2002. 6. Б.Аҳмедов. Амир Темур. Т., 1994.
7. . И.Ражабов. Мақом асослари. Т., 1992.
8. Музыка ижодиёти масалалари. Мақолалар тўплами. Т. «Янги аср авлоди», 2002.
9. С.Маннопов. Сўнмас наволар. Фарғона, 2003. 10.П.Турсунов.Халқ музыка ижодиёти ва адабиёти Тошкент 2003.